



MARKAZIY OSIYO TURIZM SANOATI RIVOJLANISHIDAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasi dotsenti

Murodov Halim Salimovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qozog‘istonda milliy turizm industriyasi barpo etishni va uning 1991 – 2021 yillar rivojlanishidagi yutuq va muammolari borasidagi masalalar tahlil qilingan. Markaziy Osiyo turizmining o‘zaro hamkorligi kengayishi va jadal rivojlanishida viza rejimining soddalashtirilishi, turli xil rasmiyatchiliklarning bartaraf etilishi hamda sohaviy yangiliklar va yengilliklarning bosqichma-bosqich joriy etilishining ijobiy ta’siri va natijasi statistika asosida tahlil qilingan. Ilmiy kuzatishlar natijasida soha rivoji bilan bog‘liq mulohazalar berilgan.

Kalit so‘z: Markaziy Osiyo, sayohat, “Silk Road Visa», ziyorat turizmi, xavfsiz turizm, KITF, YaIM.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы построения национальной индустрии туризма в Казахстане и ее достижения и проблемы в развитии 1991-2021 гг. На основе статистических данных проанализированы положительное влияние и результаты упрощения визового режима, устранения различных формальностей и постепенного внедрения отраслевых инноваций и льгот в расширении и стремительном развитии сотрудничества в Центральной Азии. По результатам научных наблюдений сделаны замечания по разработке месторождения.



Ключевые слова: Центральная Азия, Путешествия, Виза по Шелковому пути, Паломнический туризм, Безопасный туризм, KITF, ВВП

Abstract. This article analyzes the issues of building a national tourism industry in Kazakhstan and its achievements and problems in the development of 1991-2021. On the basis of statistical data, the positive impact and results of visa facilitation, the elimination of various formalities and the gradual introduction of industry innovations and benefits in the expansion and rapid development of cooperation in Central Asia are analyzed. Based on the results of scientific observations, comments were made on the development of the field.

Keywords: Central Asia, Travel, Silk Road Visa, Pilgrimage Tourism, Safe Tourism, KITF, GDP.

Turizm sohasi dunyo davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda hal qiluvchi omilga aylanib borayotgan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biridir. Turizm rivojlanishi bilan butun dunyo davlatlari va xalqlarining siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy – maʼrifiy aloqalarining kuchayishi kuzatilib, bu esa jahonda siyosiy aloqalarning kengayib, tinchlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyoning Oʻzbekiston, Qozogʻiston va Qirgʻiziston davlatlarida ham turizm sanoati rivojlanish bosqichiga kirayotgani sohadagi ijobiy koʻrsatkichlarda aks etmoqda. Bu borada Markaziy Osiyoning yetakchi davlatlaridan biri boʻlgan Qozogʻistonda milliy turizm industriyasi barpo etishni va uning 1991 – 2021 yillar rivojlanishidagi yutuq va muammolari hamda Markaziy Osiyo turizmining oʻzaro hamkorligi kengayishi va jadal rivojlanishida viza rejimining soddalashtirilishi, turli xil rasmiyatchiliklarning bartaraf etilishi, sohaviy yangiliklar va yengilliklarning bosqichma-bosqich joriy etilishining ijobiy taʼsiri va natijasi soha



taraqqiyotida yaqqol ko`rindi. Qozog`iston 1993 yildan Jahon sayyohlik tashkilotining (UNVTO)a`zosi bo`lib, mustaqil ravishda turizm sanoatini yo`lga qo`ya boshladi. Bu borada 1990 yillar o`rtalarigacha sobiq Ittifoq davridagi Inturist va Sputnik turizm tashkilotlari bu jarayonda faoliyat ko`rsatdilar. So`ngra bu tashkilotlar o`z faoliyatini to`xtatdi va Qozog`iston mustaqil ravishda milliy turizmni barpo eta boshladi. Qozog`istonning sayyohlik industriyasining rivojlanishi “shopping turlar” deb ataladigan – sobiq poytaxt Olmaotadan Turkiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari va Pokistonga uyushtirilgan sayohatlardan boshlangan. Bir nechta sayyohlik agentliklari charter sayohatlarini tashkil qilish va aviachiptalarni sotish uchun tashkil topib, bu esa keyinchalik bunday agentliklarni ko`payishiga olib keldi. “Mavsumiy” sayyohlik kompaniyalari mahalliy sayyohlarni yozgi yo`nalishlarga, masalan, Issuk-Ko`l (Qirg`iziston) yoki Medeo (Qozog`iston) konki maydonchasi kabi qishki diqqatga sazovor joylarga olib borish uchun paydo bo`ldi [2;B.293-294.]. Qozog`iston sekinlik bilan bo`lsada viza siyosatidagi o`zgarishlarni amalga oshirib, turistlar, ishbilarmonlar va boshqa tashrif buyuruv- chilarga yengilliklar va imtiyozlarni berishni yo`lga qo`ydi. N.Nazarboyev davrida 1997-yilga kelib, Qozog`istonning iqtisodiy rivojlanish modeli shakllandi. 1997-yilda “Qozog`iston – 2030” mamlakat rivojlanishining yangi rejasi qabul qilinib, unga ko`ra - professional rivojlangan davlat yaratish maqsadi qo`yildi [3;B.https.]. 1999-yil may oyida Qozog`iston sayyohlik assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Dastlabki poytaxt Almatida sayyohlik va turizm sanoatining infratuzilma obyektlari hamda madaniy – tarixiy yodgorliklar kabi diqqatga sazovor joylari mavjudligi bois xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun qulay maskanga aylandi. 2010 – 2012 yillarda sayyohlik tashkilotlarining qariyb 50 foizi Almatida joylashgan va ular mamlakatdagi barcha sayyohlarning qariyb 50 foiziga xizmat ko`rsatgan.

Mustaqillikning dastlabki yigirma yilida milliy turizm rivojida quyidagi qator muammolar: a) viza rejimidagi qattiq siyosat; b) sayyohlik agentliklari va mehmonxona industriyasida turizm bo`yicha maxsus ma`lumotga ega bo`lgan kadrlar yetishmasligi; s)



turistik agentliklar va mehmonxonalarning aksariyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va jahon axborot tarmogʻi (Internet) imkoniyatlaridan turizm sohasi rivoji yoʻlida foydalanish darajasining pastligi; d) ilgʻor texnik koʻnikmalarning yetishmasligi; e) xalqaro darajadagi gidlar va malakali mutaxassis kadrlarning muammosi; f) sayyohlarga xizmat koʻrsatuvchi transport vositalarining xalqaro talablar darajasida emasligi; g) joylashtirish vositalari hamda ularda oʻrin joylarining yetishmasligi kabi bir qator muammolar boʻlishiga qaramay sayohat va turizm sohasida ijobiy tendensiya kuzatildi. 2012-yilda Qozogʻiston sayyohlarning kelishi soni boʻyicha dunyoda 51-oʻrinni egalladi. 2000 yilda Qozogʻistonga jami 1,47 million xorijiy sayyoh, 2012 yilda esa 4,81 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan [4;B.https.]. Qozogʻiston Respublikasi Madaniyat va sport vazirligi sayyohlik va turizm sohasidagi davlat siyosatini boshqarib kelmoqda. Qozogʻiston Markaziy Osiyoda birinchi boʻlib, aholisi, turistlar, mehmonlar hamda iqtisodiyot rivoji uchun 4G yuqori tezlikdagi mobil internet tarmogʻini 2011-yilda mamlakatning 20 ta shahrida taqdim etdi. Bu borada taqqoslaydigan boʻlsak Markaziy Osiyodagi aholisi eng koʻp boʻlgan Oʻzbekistonda esa 2015-yilda faqat poytaxtda, 2017-yilda esa viloyatlarda joriy etilganligini hisobga

olsak, qoʻshni Qozogʻiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ancha ilgarilab ketganligini koʻramiz [5;B.https.]. Hozirgi kunda amaldagi prezident Qosim Tokayev boshqaruvida rivojlanish yoʻli qatʼiy davom ettirilmoqda. Qozogʻiston Markaziy Osiyoning besh davlati orasida hozirgi kunda rivojlanishning barcha sohalarida yetakchi boʻlgan davlatdir. Sayohat va turizm sanoatining Markaziy Osiyodagi rivojlanishida albatta Qozogʻistonning tutgan oʻrni va bu davlatda amalga oshirilayotgan sohaviy chora – tadbirlar nafaqat oʻz hududida balki, Markaziy Osiyodagi turizm industriasining rivojlanishiga oʻz ijobiy taʼsirini oʻtkazmoqda. Qozogʻiston iqtisodiyotiga katta miqdordagi toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy sarmoya kiritgan mamlakatlar uchun vizasiz siyosat doirasida 30 kundan kam muddatga viza talab qilinmaydigan tartib ishlab chiqildi. Dastur 2014-yil 15-iyulda boshlanib, 10 ta davlatga bir tomonlama vizasiz kirish imkoniyatini taqdim etdi va 2015-yil



iyul oyida yana 19 ta davlatga, soʻngra 2017-yil yanvar oyida 43 ta va 2019 yil sentyabrda 54 ga qadar kengaytirildi.

Qozogʻiston va Oʻzbekiston oʻrtasida 30 kunlik vizasiz 2019-yil 1-yanvardan boshlab 117 mamlakat fuqarolari Qozogʻiston Migratsiya xizmati tomonidan elektron viza taqdim etish yoʻlga qoʻyildi [6;B.https.]. Xalqaro statistik tahlillarga nazar tashlaydigan boʻlsak, qoʻshni davlat Qozogʻiston turizmi 2019-yilda – 8 million 515 ming turistni qabul qilib [7;B.https.], shu davrga mos ravishda koʻrsatilgan sayyohlik xizmatlarining hajmi – eksport koʻrsatkichlari 2019-yilda 2 milliard 922 million dollarni [8;B.https.]. yaʼni Markaziy Osiyodagi eng yuqori koʻrsatkichni qayd etdi. Qozogʻistonning turizm sanoati rivojlanishiga quyidagi omillar oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatdi:

1. Qozogʻistonga chet ellik sayyohlarni jalb qilish boʻyicha olib borilgan choratadbirlardan biri davlatning katta eʼtibori tufayli siyosiy, iqtisodiy, taʼlim boʻyicha xalqaro miqyosdagi sammitlar, forumlar, konferensiyalari davlatning tezroq tanilishiga, katta sanoat qurilishlari va juda koʻp iqtisodiy imkoniyatlar tufayli jahonning yetakchi tadbirkorlari, kompaniyalarining juda muhim biznes markaziga aylanishiga olib keldi.

2. Jahon standartlariga javob beradigan mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalarinig jadal ravishda barpo etilganligi yaʼni 2014-yilda ularning soni 2056 tani boʻlsa, 2018-yilga kelib mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalarinig soni 3322 taga koʻpayib, turistlar va sayohatchilar uchun joy muammosini hal etish uchun ijobiy ahamiyat kasb etganligi [9;B.https.].

3. Milliy va turli xalqlar (Yevropa, Osiyo oshxonalari kabi) tamaddi- xonalarining tashkil etilganligi hamda sifat darajasinig yuqoriligi;

4. Aviakompaniyalar va aviareyslar soning koʻpligi, raqobat muhiti mavjudligi, xorijiy aviakompaniyalarning Qozogʻiston shaharlariga tranzit qatnovlarining koʻpligi hamda juda



mashhur yoʻnalishlarning oʻrtacha bilet narxlari Qozogʻistonliklar va chet elliklar uchun ham qoniqarli ekanligi;

5. Mamlakat boʻylab xalqaro va mahalliy avtomobil yoʻllarinig sifati talab darajasida ekanligi, turistlarga xizmat qiladigan va shahar turizmi uchun qulay boʻlgan zamonaviy avtobuslar bilan taʼminlanganligi.

6. Qozogʻiston sayyohlik va turizm sohasini rivojlantirishda xalqaro sayyohlik tashkiloti YuNVTO bilan faol aloqalar oʻrnatib, xalqaro turistik tadbirlarni tashkil etish orqali milliy turizmni jadal rivojlanishiga koʻmaklashdi. KITF Qozogʻiston xalqaro koʻrgazmasi 2001-yildan buyon oʻtkazib kelinmoqda [10;B.16-21.]. Ekspozitsiya Markaziy Osiyodagi eng yirik professional sayyohlik platformasi va mamlakatning turizm sohasidagi asosiy tadbiri hisoblanadi.

7. Mamlakatda sayyohlik va turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan huquqiy asoslar barpo etilishi, qarorlar va sohani rivojlantirish boʻyicha konsepsiyalarning qabul qilinishi hamda ushbu chora –tadbirlar tizimli ravishda amaliyotga joriy etilishi kabilar milliy turizmga oʻsish koʻrsatkichlari yaqqol namoyon boʻlishiga turtki berdi.

Ular orasida Qozogʻiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishning 2019-2025 yillarga moʻljallangan Davlat dasturi (Qozogʻiston Respublikasi Hukumatining 2019- yil 31-maydagi 360-sonli qarori bilan tasdiqlangan) katta ahamiyat kasb etmoqda [11;B.https.].

Qozogʻistonda turizm industriyasi sohasida amalga oshirilgan keng miqyosdagi maqsadli tadbirlar rejalarining bajarilishi oʻzining mahsulini koʻrsatdi. Tahlilni Markaziy Osiyodagi qoʻshi davlat turizmi rivojlanishi bilan Oʻzbekiston turizmi holatini taqqoslaydigan boʻlsak, yanada aniqroq xulosaga ega boʻlamiz. Oʻzbekistonga xalqaro turizmdan tashrif buyurganlar 2000-yilda – 302.000 kishini, 2013-yilda – 1,969000 kishi, 2019-yilda - 6,749 ming turistni qabul qilib [12;B.https.], aynan shu yillarga mos ravishda koʻrsatilgan sayyohlik xizmatlarining hajmi – eksport koʻrsatkichlari



2000-yilda - 63 million dollar, 2014 yilda – 660 million dollar, 2019-yilda – 1 milliard 679 million dollarni tashkil etdi [13;B.https.]. Markaziy Osiyodagi eng rivojlangan qardosh davlat Qozog‘iston turizmi esa 2000-yilda – 1 million 683 kishini, 2013-yilda – 6 million 841 ming kishini, 2019-yilda – 8 million 515 ming turistni qabul qildi [14;B.https.]. Jumladan Qozog‘istonda shu davrga mos ravishda ko‘rsatilgan sayyohlik xizmatlarining hajmi – eksport ko‘rsatkichlari 2000-yilda – 403 million dollar, 2013-yilda – 2 milliard 365 million dollar, 2019-yilda 2 milliard 922 million dollarni [15;B.https.] tashkil etib, Markaziy Osiyoda eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Sayohat va turizm industriyasi hamda unga yondosh tarmoqlarning rivojlanishi omili Qozog‘istonning siyosiy nufuzining ko‘tarilishiga ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan yuksalib, sohada yangi xizmat turlarining vujudga kelishiga, yangi ish o‘rinlarining ko‘payishiga, xalq farovonligining oshishiga xizmat qilmoqda. Qozog‘istonda sayohat va turizmning jadal rivojlanishi birinchidan 2019-yilda mamlakat YaIMidagi hissasi 5,2 % ni tashkil etganligi, ikkinchidan mamlakatda 2019-yilda sayohat va turizm sohasida yaratilgan ish o‘rinlarining umumiy bandlikka qo‘shgan hissasi 443,2 ming kishini ya‘ni 5,1% ni, uchinchidan turistlarga ko‘rsatiladigan eksport xizmati 2,832 million dollarni ya‘ni umumiy eksportning 4,4% tashkil etishiga asosiy faktor bo‘ldi [16;B.https.]. Yuqoridagi omil tufayli mamlakatda turizmni rivojlantirishning eng muhim parametrlari kiruvchi hamda chiquvchi turizm ko‘rsatkichlari ekanligi va bu boradagi ijobiy o‘sinh dinamikasi 2017-yil Qozog‘iston sayyohlik sanoati uchun muvaffaqiyatli yil bo‘lib, kiruvchi turizm ko‘rsatkichlari 18,3 foizga (7,7 million kishiga), ichki - 20,2 foizga (5,56 milliongacha) oshganini (Bunda “Universiada” va “EXPO – 2017” xalqaro tadbirlarining ahamiyati katta bo‘ldi) hisobga olsak Markaziy Osiya mintaqasi uchun eng yuqori natija hisoblanadi [17;B.https.]. Bu davrga kelib, Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalar jadal rivojlanish bosqichiga ko‘tarilib, bu birinchi navbatda sayohat va turizm borasidagi yangi mustahkam hamkorlik aloqalarining



kengayishiga turtki berdi. 2018-yilda qo'shma Silk Visa rejasi Qozog'iston va O'zbekiston uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochishi kutilmoqda.

Bu g'oya ilk bor 2018-yilning iyun oyida Qozog'iston senat a'zosi Darig'a Nazarboyeva tomonidan ilgari surilib, "Turistlar Markaziy Osiyoga klish uchun uzoq masofalarni bosib o'tganlarida, bir safar davomida hamma narsani ko'rishni xohlashadi, shuning uchun biz bitta umumiy vizani yaratishimiz kerak. Bu bizning Osiyo Shengenimiz bo'lishi mumkin» [18;B.https.], dedi u Yevropa Shengen hududiga ishora qilib. Yangi 2022-yilda amalga oshirilishi kutilayotgan Silk Visa rejasi Markaziy Osiyo mintaqasida turizmni rivojlantirish orqali jadal iqtisodiy o'sishining omili bo'lgan Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Turkiya, Hindiston kabi ko'plab rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining kengayishiga xizmat qiladi.

Umuman dunyoda jumladan Markaziy Osiy davlatlarida ham mavjud tabiiy resurslardan keladigan daromadlarning kamayishi kuzatilmoqda. Bu jarayonida hukumatlar mamlakatga ko'proq valyuta oqimini olib kelishi jahonda isbotlangan turizm industriyasiga kelajakdagi iqtisodiy o'sishning lokomotivi sifatida e'tibor bermoqdalar. O'zbekistonda turizm rivojlanishining darajasini, muammolarini va hatto ularga ijobiy yechimlar muhokamasida albatta chegaradosh hamkor davlatlar turizm industriyasi rivojlanishi, uning samaradorlik omillari, xalqaro sohaviy tashkilotdagi ishtiroki, hamkorlikning ishga solinmagan jihatlariga e'tibor berish hamda tahliliy o'rganish orqali keng miqyosda xulosalar chiqarib, istiqbolli chora – tadbirlarni belgilash juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>(data obrasheniya 19.12. 2021)
2. Mahmood A. Khan, Tourism in Central Asia. TORONTO. NEW JERSEY. Apple



Academic Press 2015. P-293-294

3. <https://news.rambler.ru/cis/41897134> (data obrasheniya 19.12. 2021)

4. <http://mecometer.com/whats/kazakhstan/international-tourism-number-of-arrivals/> (data obrasheniya 11.12. 2021)

5. <https://kun.uz/uz/news/2017/08/02/beelinening-4g-tarmogi-uzbekistonning-11-sarida-isga-tusirildi> (data obrasheniya 10.11. 2021)

6. https://uz.hrvwiki.net/wiki/Visa_policy_of_Kazakhstan#cite_note-tim-1 (data obrasheniya 10.11. 2021)

7. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.ARVL?locations=KZ> (data obrasheniya 10.11. 2021)

8. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=KZ> (data obrasheniya 10.11. 2021)

9. Мамраева Д.Г. Ташенова Л.В. Современное состояние туризма в Казахстане: ключевые тренды. «ВЕКТОР ЭКОНОМИКИ» №10.2019. <http://www.vectoreconomy.ru>.

10. Mahmood A. Khan. TOURISM IN CENTRAL ASIA. TORONTO, NEW JERSEY. ©2015 by Apple Academic Press, Inc. P-16-21.

11. Мамраева Д.Г. Ташенова Л.В. Современное состояние туризма в Казахстане: ключевые тренды. «ВЕКТОР ЭКОНОМИКИ» №10.2019. <http://www.vectoreconomy.ru>.

12. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.ARVL?locations=UZ> (data obrasheniya 10.11. 2021)

13. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=UZ> (data obrasheniya 10.01. 2022)

14. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.ARVL?locations=KZ> (data obrasheniya 11.01. 2022)



15. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=KZ>
16. <https://wttc.org/Research/Economic-Impact> (data obrasheniya 11.01. 2022)
17. <https://365info.kz/2018/04/> (data obrasheniya 11.01. 2022)
18. <https://asia.nikkei.com/Politics/International-relations/Joint-visa-plan-opensdoors-for-Kazakhstan-and-Uzbekistan> (data obrasheniya 16.12. 2021)